“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=351

2026-yil
2-son
fevral
ISSN 3093-8546

Advokatlar advokatlik faoliyatidan tashqari yana qanday faoliyat turlari bilan shug‘ullanishlari mumkın?

Nazokat Umarova,
Toshkent davlat yuridik universiteti,
Jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi
e-mail: unazokat05@gmail.com

Аннотация. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida advokatlarning advokatlik faoliyatidan tashqari shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan turli faoliyat turlari tahlilqilinadi. Advokatlarning ilmiy-pedagogik faoliyat, patent vakilligi, mediatorlik, hakamlik va xalqaro arbitraj, davlat organlarining yuridik xizmati, sud boshqaruvchisi kabi yo‘nalishlarda faoliyat yuritishi imkoniyatlari yoritilgan. Maqolada advokatlik faoliyati bilan boshqa faoliyatlarni uyg‘unlashtirish tartibi va qonuniy cheklovlar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot advokatlarning professional mas’uliyati, malaka oshirish va fuqarolarga yuridik yordam ko‘rsatish imkoniyatlarini yanada aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Калит сўзлар. advokat, advokatlik faoliyati, patent vakilligi, mediatorlik, hakamlik, arbitraj, yuridik xizmat

Аннотация. В статье анализируются различные виды деятельности, которыми могут заниматься адвокаты в Республике Узбекистан помимо адвокатской практики. Рассматриваются возможности участия адвокатов в научно-педагогическойдеятельности,патентномпредставительстве,медиации, арбитраже и международном арбитраже, оказании юридических услуг в государственных органах, а также роли судебных администраторов. Статья также рассматривает порядок и правовые ограничения совмещения адвокатской деятельности с другими видами деятельности. Исследование способствует уточнению профессиональной ответственности адвокатов, повышению их квалификации и предоставлению юридической помощи гражданам.

Ключевые слова. адвокат, адвокатская деятельность, патентное представительство, медиация, арбитраж, юридические услуги

Annotation. The article analyzes various types of activities that lawyers in the RepublicofUzbekistancanengageinalongsidetheirlegalpractice.Thepossibilities for lawyers to participate in scientific and pedagogical work, patent representation, mediation,arbitrationandinternationalarbitration,legalservicesinstatebodies,and roles such as court administrators are examined. The article also considers the procedures and legal restrictions for combining legal

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

practice with other activities. The study contributes to clarifying lawyers’ professional responsibilities, skill development, and the provision of legal assistance to citizens.

Keywords. lawyer, legal practice, patent representation, mediation, arbitration, legal services

O‘zbekiston Respublikasi “Advokatura to‘g‘risida”gi qonuniga binoan, oliy yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan va advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyani belgilangan tartibda olgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi O‘zbekiston Respublikasida advokat bo‘lishi mumkin. Mazkur qonunning 3-moddasi 3-qismida shunday keltirilgan:

Advokat quyidagilardan tashqari haq to‘lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug‘ullanishga haqli emas:

ilmiy va pedagogik faoliyat;

O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasidagi va uning hududiy boshqarmalaridagi faoliyat;

patent vakili va mediator sifatidagi faoliyat;

shartnomaviy-huquqiy asosda davlat organlarining, xo‘jalik boshqaruvi organlarining, davlat muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmati xodimi sifatidagi faoliyat;

hakamlik sudlarida va xalqaro tijorat arbitrajlarida (sudlarida) sudya sifatidagi faoliyat;

sud boshqaruvchisi sifatidagi faoliyat (fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarini yuritishni amalga oshirish bo‘yicha advokatlik faoliyati uchun litsenziya olgan advokatlar uchun). 1[O‘zbekiston Respublikasi “Advokatura to‘g‘risida” gi qonuni]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.07.2003-yildagi 298-sonli “Patent vakillari to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qaroriga ilova qilingan “Patent vakillari to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq, patent vakili — ushbu Nizom talablariga muvofiq yuridik yoki jismoniy shaxslar nomidan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda boshqa tashkilotlar oldida intellektual mulk obyektlariga huquqiy muhofaza olish va uni amalga oshirish masalalari bo‘yicha vakillik qilish huquqi berilgan jismoniy shaxs; patent vakilligiga nomzod (nomzod) — patent vakili sifatida faoliyatni amalga oshirish istagini bildirgan jismoniy shaxs. Jismoniy shaxslar vazirlikda attestatsiyadan va ro‘yxatdan o‘tgandan keyin patent vakillari sifatida faoliyatni amalga oshirishga haqlidir. O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari patent vakillari sifatida attestatsiyadan va ro‘yxatdan o‘tkazilishi mumkin.

Quyidagilar patent vakillariga qo‘yiladigan malaka talablari hisoblanadi:

oliy ma'lumotga ega bo‘lish;

intellektual mulk obyektlariga huquqlarni himoya va muhofaza qilish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish uchun Vazirlik tomonidan belgilanadigan hajmda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi,

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari sohasida malaka imtihoni natijalari bilan tasdiqlangan bilimlarga ega bo‘lish.

Vazirlik va unga qarashli tashkilotlar xodimlari patent vakillari sifatida attestatsiyadan va ro‘yxatdan o‘tkazilishi mumkin emas.

Patent vakili o‘z kasb faoliyatini ham mustaqil ravishda yakka tadbirkor sifatida, ham yollanish bo‘yicha ishlagan holda amalga oshirishi mumkin.

Intellektual mulk sohasida mutaxassislarni, shu jumladan, patent vakillarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tomonidan amalga oshiriladi.

Patent vakillari malakasini oshirish har besh yilda kamida bir marta, keyinchalik attestatsiyadan o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Patent vakillari O‘zbekiston Respublikasi qonunchilikka muvofiq patent vakillari agentligini va boshqa tashkilotlarni, shuningdek jamoat birlashmalarini tashkil etishlari mumkin. 2[O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.07.2003-yildagi 298-sonli “Patent vakillari to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qaroriga ilova qilingan Patent vakillari to‘g‘risidagi nizom] O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonuniga asosan, mediator — mediatsiyani amalga oshirish uchun taraflar tomonidan jalb etiladigan shaxs; mediatsiya — kelib chiqqan nizoni taraflar o‘zaro maqbul qarorga erishishi uchun ularning ixtiyoriy roziligi asosida mediator ko‘magida hal qilish usuli.

Ushbu Qonunning amal qilishi fuqarolik huquqiy munosabatlardan, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, shu jumladan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan, mijoz va bank (kredit tashkilotlari) o‘rtasidagi munosabatlardan, sug‘urta shartnomasidan yuzaga keladigan munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga, mehnat va oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga mediatsiyani qo‘llash bilan bog‘liq munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi. Mediatsiya maxfiylik, ixtiyoriylik, taraflarning hamkorligi va teng huquqliligi, mediatorning mustaqilligi va xolisligi prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonuni 12- moddasida mediatorga doir talablar belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, oliy ma'lumotga ega bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan mediatorlarni tayyorlash dasturi bo‘yicha maxsus o‘quv kursidan o‘tgan, malaka imtihonini topshirgan va Mediatorlar reyestriga kiritilgan jismoniy shaxs O‘zbekiston Respublikasida mediatorlik faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida advokat yoki notarius maqomiga ega bo‘lgan shaxslarning malaka imtihonini topshirishi talab etilmaydi.

Quyidagilar mediator bo‘lishi mumkin emas:

davlat xizmatida turgan shaxs, bundan pedagogik, ilmiy, ijodiy, notarial faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxs mustasno;

muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilganligi to‘g‘risida sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori mavjud bo‘lgan shaxs;

sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxs.

Mediatorning faoliyati tadbirkorlik faoliyati hisoblanmaydi. Mediator: mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish chog‘ida bir vaqtning o‘zida ham taraflarning barchasi bilan, ham taraflarning har biri bilan alohida-alohida uchrashuvlar o‘tkazishga, ularga nizoni hal etishga doir og‘zaki va yozma tavsiyalar berishga;

mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirishi munosabati bilan sarflagan xarajatlarining o‘rni qoplanishini talab qilishga haqli.

Mediator:

qonunchilik hujjatlari talablariga va Mediatorning kasb etikasi qoidalariga rioya etishi;

o‘z bilimlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda uch yilda kamida bir marta kasbiy malakasini oshirishi, bundan notarius va advokat maqomiga ega bo‘lgan mediatorlar mustasno;

mediatsiya boshlanguniga qadar mediatsiya taraflariga mediatsiyaning maqsadini, shuningdek ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi;

mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish chog‘ida faqat mediatsiya taraflarining roziligi bilan harakat qilishi;

nizo yuzasidan o‘zaro maqbul kelishuvga erishishga taraflarni ishontirishning qonuniy vositalari va usullaridan foydalanishi;

vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda va namunada statistik ma'lumotlarni taqdim etib borishi;

o‘zining mustaqilligi va xolisligiga ta'sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan holatlar mavjud bo‘lsa yoki yuzaga kelsa, bu haqda taraflarga ma'lum qilishi shart.

Mediator qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ega bo‘lishi va uning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Mediatorning faoliyati haq evaziga yoki tekin amalga oshirilishi mumkin. Haq to‘lash va xarajatlarning o‘rnini qoplash taraflar tomonidan, agar ular boshqacha qoida haqida kelishib olmagan bo‘lsa, teng ulushlarda amalga oshiriladi. Mediator mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirishni rad etgan taqdirda, u mediatsiya taraflari tomonidan o‘ziga to‘langan pul mablag‘larini qaytarib berishi shart. 3[O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida” gi qonuni] O‘zbekiston Respublikasi “Hakamlik sudlari to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra, hakamlik sudyasi — hakamlik sudida nizoni hal etish uchun hakamlik bitimi taraflari tomonidan saylangan yoki belgilangan tartibda tayinlangan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Hakamlik sudlari fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shu jumladan tadbirkorlik subyektlari oʻrtasida vujudga keluvchi iqtisodiy nizolarni hal etadi. Hakamlik sudlari ma'muriy, oila va mehnat huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shuningdek qonunda nazarda tutilgan boshqa nizolarni hal etmaydi. Hakamlik sudi nizolarni Oʻzbekiston Respublikasining qonunchiligi asosida hal qiladi. Hakamlik sudi shartnoma shartlariga muvofiq va ish muomalasi odatlarini hisobga olgan holda hal qiluv qarorini qabul qiladi. Agar hakamlik bitimi taraflarining munosabatlari qonunchilik yoki hakamlik bitimi taraflarining kelishuvi bilan toʻgʻridan-toʻgʻri tartibga solinmagan boʻlsa va bu munosabatlarga nisbatan qoʻllaniladigan ish muomalasi odati mavjud boʻlmasa, hakamlik sudi shunga oʻxshash munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini qoʻllaydi (qonun oʻxshashligi), mazkur hollarda qonun oʻxshashligidan foydalanish imkoniyati boʻlmagan taqdirda esa hakamlik bitimi taraflarining huquq va majburiyatlari qonunchilikning mazmunidan (huquq oʻxshashligi) hamda halollik, oqillik va adolat talablaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Yigirma besh yoshdan kichik boʻlmagan, nizoning xolis hal qilinishini ta'minlashga qodir boʻlgan, nizoning pirovard natijasidan bevosita yoki bilvosita manfaatdor boʻlmagan, hakamlik bitimi taraflaridan mustaqil boʻlgan va hakamlik sudyasi majburiyatlarini bajarishga rozilik bergan Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosi hakamlik sudyasi etib saylanishi (tayinlanishi) mumkin.

Nizoni yakka tartibda hal qiluvchi hakamlik sudyasi oliy yuridik ma'lumotga ega boʻlishi kerak. Nizo hay'atda hal qilinayotganda hakamlik sudi tarkibining raisi oliy yuridik ma'lumotga ega boʻlishi kerak.

Hakamlik sudyasining malakasiga qoʻyiladigan talablar hakamlik bitimi taraflari oʻrtasida bevosita kelishib olinishi yoki doimiy faoliyat koʻrsatuvchi hakamlik sudining qoidalari bilan belgilanishi mumkin.

Quyidagilar hakamlik sudyasi boʻlishi mumkin emas:

muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilganligi toʻgʻrisida sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori mavjud boʻlgan shaxs;

sodir etgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxs;

oʻz kasbiy faoliyatiga mos kelmaydigan qilmishlar sodir etganligi uchun sudya, advokat, notarius, tergovchi, prokuror yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning boshqa xodimi sifatidagi vakolati qonunda belgilangan tartibda tugatilgan shaxs;

qonunda belgilangan mansab maqomiga muvofiq hakamlik sudyasi etib saylanishi (tayinlanishi) mumkin boʻlmagan shaxs.

Hakamlik sudyalari gonorarining miqdori da'voning bahosi, nizoning murakkabligi, hakamlik sudyalari hakamlik muhokamasi uchun sarflagan vaqt va gonorar miqdoriga ta'sir koʻrsatuvchi boshqa holatlar hisobga olingan holda belgilanadi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Doimiy faoliyat koʻrsatuvchi hakamlik sudida hakamlik sudyalari gonorarining miqdori hakamlik sudi tarkibi tomonidan hakamlik sudyalarining doimiy faoliyat koʻrsatuvchi hakamlik sudining qoidalarida nazarda tutilgan hakamlik sudyalari gonorarlari shkalasiga muvofiq, bunday shkala boʻlmagan taqdirda esa, ushbu moddaning birinchi qismi talablari hisobga olingan holda belgilanadi.

Muvaqqat hakamlik sudida hakamlik sudyalari gonorarining miqdori hakamlik muhokamasi taraflari kelishuvi boʻyicha va ushbu moddaning birinchi qismi qoidalari hisobga olingan holda hakamlik sudi tomonidan belgilanadi. Hakamlik sudyasining gonorariga qonunchilikka muvofiq soliq solinadi. 4 [Oʻzbekiston Respublikasi “Hakamlik sudlari toʻgʻrisida”gi qonuni] Oʻzbekiston Respublikasining “Xalqaro tijorat arbitraji toʻgʻrisida”gi qonuniga binoan, arbitr — taraflar tomonidan nizoni arbitrajda hal qilish uchun kelishilgan tartibda tayinlangan jismoniy shaxs; arbitraj — doimiy arbitraj muassasasi yoki muayyan nizoni hal qilish uchun tashkil etiladigan arbitraj sudi tomonidan amalga oshirilishidan qat'i nazar, nizoni hal etish tartib-taomili; arbitraj muassasasi — xalqaro tijorat arbitrajini boshqaradigan tashkilot; arbitraj sudi — yakka tartibdagi arbitr yoki arbitrlar hay'ati.

Ushbu Qonun Oʻzbekiston Respublikasi va boshqa davlat (davlatlar) oʻrtasida amalda boʻlgan kelishuvlarga rioya etgan holda xalqaro tijorat arbitrajiga nisbatan qoʻllaniladi.

Xalqaro tijorat arbitrajiga taraflarning kelishuviga binoan tijorat xususiyatiga ega boʻlgan ham shartnomaviy, ham shartnomadan tashqari barcha munosabatlardan yuzaga keladigan nizolar berilishi mumkin.

Ushbu Qonunning qoidalari, bundan 13, 14, 30, 31, 32, 51 va 52-moddalar mustasno, faqat arbitraj joyi Oʻzbekiston Respublikasida joylashgan holdagina qoʻllaniladi.

Agar:

arbitraj kelishuvi taraflarining tijorat korxonalari uni tuzish paytida turli davlatlarda joylashgan boʻlsa; yoki quyidagi joylardan biri taraflar oʻz tijorat korxonalariga ega boʻlgan davlatdan tashqarida joylashgan boʻlsa:

arbitraj joyi, agar u arbitraj kelishuvida yoki unga muvofiq belgilangan boʻlsa;

tijorat munosabatlaridan kelib chiqadigan majburiyatlarning katta qismi ijro etilishi kerak boʻlgan har qanday joy yoki nizo predmeti bilan koʻproq chambarchas bogʻliq boʻlgan joy; yoki taraflar arbitraj kelishuvining predmeti bittadan koʻproq mamlakat bilan bogʻliq ekanligi toʻgʻrisida toʻgʻridan-toʻgʻri kelishib olgan boʻlsa, arbitraj xalqaro deb hisoblanadi.

Ushbu modda toʻrtinchi qismining maqsadlari uchun, agar taraf:

bittadan ortiq tijorat korxonasiga ega boʻlsa, arbitraj kelishuvi bilan koʻproq chambarchas aloqaga ega boʻlgani tijorat korxonasi hisoblanadi;

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

tijorat korxonasiga ega boʻlmasa, uning odatdagi joylashgan yeri (yashash joyi) e'tiborga olinadi.

Ushbu Qonun muayyan nizolarni arbitrajga topshirish mumkin emasligi yoki bu nizolarni arbitrajga faqat ushbu Qonunning qoidalari hisoblanmaydigan qoidalarga muvofiq topshirish mumkinligi belgilangan har qanday boshqa Oʻzbekiston Respublikasi qonunining amal qilishiga ta'sir qilmaydi.

Taraflar oʻz xohishiga koʻra arbitrlar sonini belgilashi mumkin. Bunday kelishuv boʻlmaganda uch nafar arbitr tayinlanadi. Agar taraflar boshqacha shartlashmagan boʻlsa, hech bir shaxs oʻzining fuqaroligi sababli arbitr sifatida ishtirok etish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas.

Basharti taraflar ushbu moddaning toʻrtinchi va beshinchi qismlari qoidalariga rioya etsa, arbitrni yoki arbitrlarni tayinlash tartib-taomilini oʻz xohishiga koʻra kelishib olishi mumkin.

Bunday kelishuv mavjud boʻlmasa:

uch nafar arbitrli arbitrajda har bir taraf bittadan arbitrni tayinlaydi va shu tariqa tayinlangan ikki nafar arbitr uchinchi arbitrni tayinlaydi; agar bir taraf boshqa tarafning bu haqdagi iltimosi olingach oʻttiz kun ichida arbitrni tayinlamasa yoki ikki arbitr oʻzi tayinlangan paytdan e'tiboran oʻttiz kun ichida uchinchi arbitrni tanlash toʻgʻrisida kelisha olmasa, arbitr istalgan tarafning iltimosiga binoan sud tomonidan tayinlanadi;

yakka tartibdagi arbitrlik arbitrajida, agar taraflar arbitrni tanlash toʻgʻrisida kelisha olmasa, arbitr taraflardan istalgan birining iltimosiga binoan sud tomonidan tayinlanadi.

Agar taraflar tomonidan kelishilgan tayinlash tartib-taomilida:

taraflardan biri bunday tartib-taomilga rioya etmasa; yoki taraflar yoki ikki arbitr bunday tartib-taomilga muvofiq kelishuvga erisha olmasa; yoki uchinchi shaxs, shu jumladan muassasa shunday tartib-taomilga muvofiq oʻz zimmasiga yuklatilgan biror-bir vazifani bajarmasa, agar tayinlash tartib-taomili toʻgʻrisidagi kelishuvda tayinlashni ta'minlashning boshqacha usullari nazarda tutilmagan boʻlsa, istalgan taraf suddan zarur choralar koʻrilishini soʻrashi mumkin.

Ushbu moddaning uchinchi yoki toʻrtinchi qismlariga muvofiq sud tomonidan chiqariladigan qaror ustidan shikoyat qilinmaydi.

Arbitraj sudlari oʻz faoliyatida hech kimga boʻysunmaydi va mustaqildir. Arbitraj sudlarining faoliyatiga biror-bir aralashuvga, xuddi shuningdek unga bevosita yoki bilvosita ta'sir koʻrsatishga yoʻl qoʻyilmaydi hamda bu Oʻzbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq javobgarlikka sabab boʻladi. Arbitraj sudining faoliyatiga hech qanday sud aralashuviga, mazkur Qonunda bunday aralashuv belgilangan hollardan tashqari, yoʻl qoʻyilmaydi.

Arbitrni tayinlashda sud taraflarning kelishuviga muvofiq arbitrga qoʻyiladigan har qanday talabni hamda mustaqil va xolis arbitrni tayinlashni ta'minlashi mumkin boʻlgan fikrlarni lozim darajada inobatga oladi, yakka tartibdagi arbitr yoki uchinchi arbitr tayinlangan taqdirda esa fuqaroligi taraflarning fuqaroligidan

boshqa fuqarolikka ega bo‘lgan arbitrni tayinlash maqbul ekanligini ham e'tiborga oladi. 5 [O‘zbekiston Respublikasining “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi qonuni]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, davlat organlari va tashkilotlarida, shu jumladan ularning hududiy tuzilmalarida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan eng kam me’yor va mezonlarga asosan, majburiy tartibda yuridik xizmatlar tashkil etiladi. Bunda yuridik xizmatning mavjud shtat birliklarini qisqartirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi;

davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari xodimlariga adliya organlari xodimlariga belgilangan martaba darajalarini berish, ko‘p yillik xizmat uchun ustamalarni to‘lash tartibi tatbiq etiladi. Bunda yuridik xizmat xodimi faoliyat yuritayotgan tashkilotda qonunchilik hujjatlarida belgilangan miqdordan yuqori ustama belgilangan taqdirda, xuddi shu shakldagi ustama to‘lash yuqori miqdor bo‘yicha amalga oshiriladi hamda xarajatlar davlat organlari va tashkilotlarining mablag‘lari hisobidan qoplanadi;

yuridik xizmat xodimi sifatidagi mehnat staji xodim boshqa davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlariga ishga o‘tganda martaba darajalari va ko‘p yillik xizmat ustamalarini to‘lash uchun mo‘ljallangan mehnat staji hisobiga olinadi;

davlat organlari va tashkilotlari tomonidan yuridik xizmat xodimlariga qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilmagan funksiyalar yuklatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi;

davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmatlarining mazkur mutaxassislik bo‘yicha uch yillik stajiga ega bo‘lgan xodimlari, litsenziya olish uchun advokat maqomiga ega bo‘lishga talabgor shaxs sifatida malaka imtihonida tegishli stajirovka o‘tmasdan ishtirok etish huquqiga ega;

davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari xodimlarining malakasini oshirish har uch yilda kamida bir marta amalga oshiriladi;

davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari xodimlari tegishli ravishda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida va uning hududiy organlarida har uch yilda bir marta attestatsiyadan o‘tadilar;

davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari tizimli ravishda tegishli soha faoliyatidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasining amalga oshirilishini tashkil etadi;

davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmat faoliyatiga shartnomaviy- huquqiy asosda advokatlarni jalb etish huquqiga ega.

Davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari mazkur organlar va tashkilotlar ishtirokida vujudga keladigan nizolarni sudgacha hal etish yuzasidan majburiy tartibda choralarni

ko‘radilar;

buyruqlar, farmoyishlar, shartnomalar va yuridik xususiyatga ega bo‘lgan boshqa hujjatlarning loyihalari huquqiy ekspertizani amalga oshirish uchun majburiy tartibda yuridik xizmatga taqdim etiladi;

jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishga ta’sir etadigan davlat organlari va tashkilotlarining qarorlari yuzasidan majburiy tartibda yuridik xizmatning xulosasi olinishi lozim;

davlat organlari va tashkilotlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakati yoki harakatsizligi yuzasidan berilgan shikoyatlar majburiy tartibda davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari tomonidan ham ko‘rib chiqiladi;

davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish masalalari majburiy tartibda adliya organlari bilan kelishiladi;

adliya organlari yuridik xizmat faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik talablarini buzgan davlat organlari va tashkilotlarining rahbarlari hamda yuridik xizmatlari xodimlariga nisbatan intizomiy ish yuritishni qo‘zg‘atish tashabbusi bilan chiqish huquqiga ega;

davlat organlari va tashkilotlarida har yili yuridik xizmatlarning mazkur davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylik ta’minlanishi ahvoli to‘g‘risidagi hisoboti eshitiladi;

yuridik xizmat xodimlari har chorakda sudgacha va sud tartibida davlat organi va tashkiloti foydasiga hal qilingan nizolar yuzasidan undirilgan summaning 5 foizi, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 50 barobaridan ko‘p bo‘lmagan miqdorda mukofotlanadi. 6 [O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori] “Davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati to‘g‘risida”gi Nizomga asosan, yuridik xizmat — davlat organi va tashkiloti faoliyatini huquqiy ta’minlash maqsadida qonunchilikda belgilangan me’yor va mezonlarga muvofiq majburiy tartibda tashkil etiladigan yoki joriy qilinadigan mustaqil tarkibiy tuzilma yoxud lavozim. Yuridik xizmat bevosita davlat organi va tashkilotining rahbariga bo‘ysunadi. Yuridik xizmat yuridik departament, yuridik boshqarma, yuridik bo‘lim, yuridik byuro shaklida tashkil qilinishi yoxud bitta shtatdan iborat bosh yuriskonsult, yetakchi yuriskonsult, katta yuriskonsult yoki yuriskonsultdan iborat bo‘lishi mumkin.

Yuridik xizmatning mavjud shtat birliklarini qisqartirishga va ularni davlat organi va tashkilotining boshqa tarkibiy tuzilmalariga qayta taqsimlashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Yuridik xizmat xodimi yoxud yuriskonsult lavozimida oliy yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan yoki Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo‘yicha professional o‘qitish markazida yuridik mutaxassislik bo‘yicha qayta tayyorlash kurslarini tamomlagan va belgilangan namunadagi

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

diplomni olgan shaxs ishlashi mumkin.

Yuridik xizmat boshlig‘i lavozimiga oliy yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan yoxud Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo‘yicha professional o‘qitish markazida yuridik mutaxassislik bo‘yicha qayta tayyorlash kurslarini tamomlagan va belgilangan namunadagi diplomni olgan, shuningdek, yuridik mutaxassislik bo‘yicha kamida ikki yillik ish stajiga ega bo‘lgan shaxs tayinlanadi.

Yuridik xizmat xodimi lavozimiga birinchi marta tayinlangan shaxslar belgilangan tartibda adliya organlarida stajirovkadan o‘tadilar.

Adliya organlarida stajirovkadan o‘tish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, shuningdek respublika darajasidagi davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmati xodimlari lavozimga O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan kelishilgan holda tayinlanadilar va ozod qilinadilar.

Tumanlar va shaharlar hokimliklari, shuningdek hududiy darajadagi davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmati xodimlari lavozimga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari bilan kelishilgan holda tayinlanadilar va ozod qilinadilar.

Yuridik xizmat xodimini lavozimga tayinlash va ozod qilish masalalarini adliya organlari bilan kelishish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Davlat organi va tashkilotida yuriskonsult yordamchisi lavozimi joriy etilishi mumkin. Yuriskonsult yordamchisi lavozimida oliy yoki o‘rta maxsus yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan yoxud Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo‘yicha professional o‘qitish markazida yuridik mutaxassislik bo‘yicha qayta tayyorlash kurslarini tamomlagan va belgilangan namunadagi diplomni olgan shaxs, shuningdek, oliy ta’lim muassasasining “Yurisprudensiya” mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan bakalavriat bosqichining bitiruvchi kursi talabasi yoki magistranti ishlashi mumkin.Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar yuridik xizmat xodimi va yuriskonsult yordamchisi lavozimida ishlashi mumkin emas.

Davlat organi va tashkilotining yuridik xizmati xodimlariga martaba darajalari beriladi hamda ko‘p yillik xizmat uchun qo‘shimcha to‘lov va ustamalar qonunchilikda belgilangan tartibda to‘lanadi.

Davlat organi va tashkiloti yuridik xizmatining xodimi sifatidagi mehnat staji boshqa davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlariga o‘tganda martaba darajalari va ko‘p yillik xizmat uchun qo‘shimcha to‘lov va ustamalarni to‘lash uchun mo‘ljallangan mehnat staji hisobiga olinadi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Davlat organi va tashkiloti yuridik xizmatlari xodimlari qonunchilikda belgilangan tartibda har uch yilda kamida bir marta malakasini oshiradi hamda har uch yilda bir marta attestatsiyadan o‘tadilar.

Davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmat xodimlarining maxsus unvonlari quyidagi martaba darajalaridan iborat:

darajali Davlat adliya maslahatchisi;
darajali Davlat adliya maslahatchisi;
darajali adliya maslahatchisi;
darajali adliya maslahatchisi;
darajali adliya maslahatchisi;
darajali yurist;
darajali yurist;
darajali yurist.

Davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmat xodimlariga martaba darajalari ijobiy attestatsiya, malakasi va ish stajiga muvofiq, egallab turgan lavozimini, oldingi ish yoki xizmat joyida berilgan maxsus unvonlarni, shuningdek qonunchilikni mustahkamlash, aholining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish sohasidagi xizmatlarini hisobga olgan holda izchil tartibda beriladi. 7 [“Davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati to‘g‘risida”gi Nizom] “Sud boshqaruvchisi attestatini olish uchun talabgorlarni o‘qitish va sud boshqaruvchilari malakasini oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga ko‘ra, sud boshqaruvchisi (muvaqqat boshqaruvchi, sanatsiya boshqaruvchisi, tashqi boshqaruvchi, tugatish boshqaruvchisi, moliyaviy boshqaruvchi) — to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarini o‘tkazish uchun sud tomonidan tayinlanadigan shaxslar; sud boshqaruvchisi (vaqtincha boshqaruvchi, sanatsiya boshqaruvchisi, tashqi boshqaruvchi, tugatish ishlari boshqaruvchisi) — bankrotlik taomillarini o‘tkazish uchun iqtisodiy sud tomonidan tayinlanadigan shaxs; talabgor — guvohnoma olish uchun o‘quv kursida o‘qiydigan shaxs; guvohnoma — tasdiqlangan maxsus o‘quv kursiga muvofiq sud boshqaruvchilarini tayyorlash bo‘yicha maxsus kurslarda o‘qiganlikni tasdiqlovchi va sud boshqaruvchisi attestatini olish uchun asos bo‘ladigan hujjat; maxsus dastur — talabgorlarni o‘qitish va sud boshqaruvchilari malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv dasturi; sertifikat — sud boshqaruvchisi malaka oshirish kurslarida o‘qiganligini tasdiqlovchi hujjat. Talabgor sud boshqaruvchisi attestatini olish uchun kamida ikki yillik ish stajiga va oliy ma'lumotga ega bo‘lishi lozim.

Talabgor O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabiga ariza taqdim etadi. Bunda Oliy maktab quyidagi hujjatlarni tegishli davlat organlari va tashkilotlaridan mustaqil ravishda, shu jumladan “Elektron hukumat” tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali so‘rab oladi:

pasport ma'lumotlari;

oliy va o‘rta maxsus ta'lim muassasasida o‘qiganlikni tasdiqlovchi ma'lumotlar;

ish stajini tasdiqlovchi ma'lumotlar;

Talabgordan mazkur bandda nazarda tutilmagan hujjatlar taqdim etilishini talab qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Oliy maktab boshqa mutaxassislarni, fuqarolik, iqtisodiy va boshqa qonunchilik sohasida maxsus bilimlarga ega bo‘lgan shaxslarni, texnik qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirish, o‘qitish, moderatsiya uchun maydonchalar taqdim etish, shuningdek, spikerlar hamda boshqa turdosh xizmat ko‘rsatish maqsadida boshqa tashkilotlarni jalb qilgan holda, talabgorlarni o‘qitadi va sud boshqaruvchilari malakasini oshiradi.

Sud boshqaruvchisi har ikki yilda malakasini oshiradi va unga tegishli sertifikat beriladi. 8 [“Sud boshqaruvchisi attestatini olish uchun talabgorlarni o‘qitish va sud boshqaruvchilari malakasini oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom] O‘zbekiston Respublikasida yuridik faoliyatning turli yo‘nalishlari — advokatlik, patent vakilligi, mediatsiya, hakamlik (arbitraj) sudlari faoliyati, davlat organlarining yuridik xizmati hamda sud boshqaruvchilari instituti — yagona maqsadga, ya’ni fuqarolar va tashkilotlarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Ushbu sohalarning barchasi mustaqil tarzda tartibga solinib, o‘ziga xos huquqiy maqom, malaka talablari va kasbiy cheklovlarga ega.Advokatlik faoliyati — jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan mustaqil kasbiy faoliyat bo‘lib, advokatlar fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qiladi. Advokat boshqa haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullana olmaydi, biroq ilmiy, pedagogik, patent vakili, mediator, hakamlik sudi sudyasi yoki sud boshqaruvchisi sifatida faoliyat yuritishi mumkin.

Umuman olganda O‘zbekiston Respublikasida yuridik kasblar tizimi puxta huquqiy asosga ega bo‘lib, ularning har biri — advokat, patent vakili, mediator, hakamlik sudyasi, davlat yuridik xizmat xodimi yoki sud boshqaruvchisi — mamlakatda qonun ustuvorligi, adolat, inson huquqlari himoyasi va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Bu tizimlarning izchil rivojlanishi O‘zbekistonning demokratik, huquqiy davlat sifatidagi poydevorini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Advokatura to‘g‘risida” gi qonuni

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.07.2003-yildagi 298- sonli

3. “Patent vakillari to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qaroriga ilova qilingan “Patent vakillari to‘g‘risida”gi Nizom

4. O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida” gi qonuni

5. O‘zbekiston Respublikasi “Hakamlik sudlari to‘g‘risida”gi qonuni

6. O‘zbekiston Respublikasining “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi qonuni

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori
8. “Davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati to‘g‘risida”gi Nizom
9. “Sud boshqaruvchisi attestatini olish uchun talabgorlarni o‘qitish va sud boshqaruvchilari malakasini oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom